

O‘zbekiston Respublikasi hududiy-markaziy dehqon bozorlarida, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida

MA'LUMOT*



(Narxlarni ro‘yxatga oluvchi tomonidan kuzatuv o‘tkazilgan kun va vaqtdagi narx-navo qayd etilib, bunda vaqt va joyiga qarab narxlar o‘zgarib turadi. Mazkur ma’lumotlarning shakllanishi jarayonida, faqatgina dehqon bozorlari hududidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari hisobga olingan (supermarket, minimarket, do‘konlardagi narxlar inobatga olinmagan).

Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan, mamlakatimiz hududlaridagi markaziy dehqon bozorlarida, **2020- yil 25- avgust kuni**** o‘tkazilgan kuzatuv natijalari bo‘yicha, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

Mol go‘шти (suyaksiz go‘sh tidan tashqari) 40 000 so‘mdan 65 000 so‘mgacha (kg)



Kuzatuv natijasiga ko‘ra, 1 kg mol go‘sh tining (suyaksiz go‘sh tidan tashqari) minimal narxi, Nukus shahrining - “Nukus dehqon bozori”dagi arzonlashtirilgan go‘sh t rastalarida qayd etilgan (40 000 so‘m).

Mol go‘sh tining maksimal narxi esa, Chirchiq shahrining “Chirchiq shahar dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Farhod dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da kuzatildi (65 000 so‘m).



Qo'y go'shti
45 000 so'mdan 85 000 so'mgacha (kg)



Qo'y go'shtining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko'ra, Nukus shahrining - "Nukus dehqon bozori", Toshkent shahrining - "Farhod dehqon bozori" va "Qo'yliq dehqon bozori"da (45 000 so'm) ro'yxatga olingan.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Oloy dehqon bozori" da (85 000 so'm) kuzatildi.



Kartoshka

2 500 so'mdan 6 000 so'mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko'ra, Jizzax shahrining - "Eski shahar dehqon bozori", Namangan shahrining - "Namangan chorsu dehqon universal bozori", Termiz shahrining - "Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori", Guliston shahrining - "Guliston dehqon bozori", Chirchiq shahrining - "Chirchiq shahar dehqon bozori", Yangiyo'l shahrining - "Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori", Urganch shahrining - "Urganch markaziy dehqon bozori", Tashkent shahrining - "Farhod dehqon bozori" va "Qo'yliq dehqon bozori"da sotuvda bo'lgan yirik bo'lmagan kartoshkaning narxi minimal narx sifatida (2 500 so'm) qayd etilgan.



Shu bilan birga, Toshkent shahrining "Oloy dehqon bozori"da sotilgan saralangan kartoshkaning narxi maksimal narx sifatida (6 000 so'm) qayd etildi.

Piyoz

9 00 so'mdan 3 500 so'mgacha (kg)



Piyoz mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko'ra, Guliston shahrining - "Guliston dehqon bozori",da (9 00 so'm) ro'yxatga olindi.

Maksimal narx sifatida esa Toshkent shahrining "Oloy dehqon bozori"da sotuvda bo'lgan saralangan piyozning narxi kuzatildi (3 500 so'm).



Sabzi

1 500 so‘mdan 6 000 so‘mgacha (kg)

Sabzi mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Jizzax shahrining “Eski shahar dehqon bozori”, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”, Chirchiq shahrining “Chirchiq shahar dehqon bozori” va Farg‘ona shahrining “Markaziy dehqon bozori”da (1 500 so‘m) qayd etilgan.



Shu bilan birga, Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da sotuvda bo‘lgan tozalangan va saralangan sabzining narxi maksimal narx sifatida (6 000 so‘m) qayd etildi.

Tuxum

5 000 so‘mdan 12 000 so‘mgacha (10 dona)



Kuzatuv natijasiga ko‘ra, Guliston shahrining – “Guliston dehqon bozori”, da sotuvda bo‘lgan mayda tuxumning narxi minimal narx sifatida qayd etildi (5 000 so‘m).

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Mirobod dehqon bozori” va “Farhod dehqon bozori” da qayd etilgan (12 000 so‘m).



Guruch

5 500 so‘mdan 18 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, guruch mahsulotining minimal narxi Nukus shahrining - “Nukus dehqon bozori”, Toshkent shahrining – “Qo‘yliq dehqon bozori”da (5 500 so‘mdan) qayd etilgan.



Maksimal narx esa, Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da kuzatildi (“Lazer” navli guruch 18 000 so‘m).

O‘simlik yog‘i **8 800 so‘mdan 15 000 so‘mgacha (litr)**



O‘simlik yog‘i mahsulotlarining kuzatuv natijasiga ko‘ra minimal narxi Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori” va “Mirotbod dehqon bozori”da (mahalliy paxta yog‘i 8 800 so‘m) kuzatildi.

Maksimal narxi esa, Samarqand shahrining – “Siyob dehqon bozori”, “Temiryo‘l dehqon bozori” va “Damariq dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Mirotbod dehqon bozori”da (kungaboqar yog‘i 15 000 so‘m) kuzatildi.



Shakar

5 800 so‘mdan 7 000 so‘mgacha (kg)



Shakar mahsulotining kuzatuv natijasiga ko‘ra minimal narxi Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori”, “Mirotbod dehqon bozori”, “Eski jo‘va dehqon bozori” va “Qo‘yliq dehqon bozori”da (5 800 so‘m) qayd etildi.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori”, “Oloy dehqon bozori” va “Mirotbod dehqon bozori”da (7 000 so‘m) kuzatildi.



Markaziy dehqon bozorlari kesimidagi batafsil ma‘lumotlar quyidagi ko‘rinishda taqdim etilgan:

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy markaziy dehqon bozorlarida alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida**

MA'LUMOT*

2020- yil 25- avgust holatiga (1 kg so'mda)

№	Bozorlar nomi		Mol go'shti <small>(suyaksiz go'shtidan tashqari)</small>	Qo'y go'shti	Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Tuxum (10 dona)	Guruch	O'simlik yog'i (1 L)	Shakar
1.	Nukus shahar "Nukus dehqon bozori"	min	40000	45000	3300	1300	2500	8000	5500	11000	6000
		max	55000	51000	4000	2000	3500	9000	13000	12000	6500
2.	Andijon shahar "Yangi bozor dehqon bozori"	min	48000	55000	3000	2000	2000	8000	7500	11500	6000
		max	57000	65000	4000	2500	2500	10000	14000	13000	6300
3.	Andijon shahar "Andijon shahar markaziy dehqon bozori"	min	48000	55000	3000	2000	2000	8000	7500	11000	6000
		max	57000	65000	4000	2500	2500	10000	15000	12500	6300
4.	Buxoro shahar "Buxoro markaziy dehqon bozori"	min	52000	52000	3000	1500	2500	7000	6000	10000	6000
		max	57000	55000	4200	2200	3500	9000	14000	13000	6200
5.	Jizzax shahar "Jizzax markaziy dehqon bozori"	min	50000	50000	2500	1500	2000	7000	6000	12000	6000
		max	58000	59000	3500	2000	3000	9000	15000	13500	6500
6.	Jizzax shahar "Eski shahar dehqon bozori"	min	50000	50000	2500	1200	1500	7500	6000	12500	6000
		max	58000	60000	3500	2000	3000	9000	16000	14000	6500
7.	Qarshi shahar "Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori"	min	50000	56000	3500	1300	3000	7000	6000	10000	6000
		max	55000	62000	4000	1700	3500	9500	15000	12500	6500
8.	Navoiy shahar "Saxovat" bozori	min	48000	52000	3500	1700	3000	7500	7000	10000	6000
		max	58000	55000	4000	2000	4000	8500	13000	13000	6500
9.	Namangan shahar "Namangan chorsu dehqon universal bozori"	min	45000	55000	2500	1000	1500	7000	7000	10500	6000
		max	50000	58000	4000	2500	2500	9000	17500	13000	6500
10.	Samarqand shahar "Siyob dehqon bozori"	min	50000	55000	3000	1500	2500	6000	8500	11000	6000
		max	58000	60000	3500	2000	3000	10000	16000	15000	6500
11.	Samarqand shahar "Temiryo'l dehqon bozori"	min	55000	55000	3500	1500	3000	8000	9000	11000	6000
		max	60000	62000	4000	2000	3500	10000	17000	15000	6500
12.	Samarqand shahar "Damariq dehqon bozori"	min	55000	55000	3000	1000	2500	7000	8000	11000	6000
		max	58000	60000	3500	1500	3000	10000	15000	15000	6500
13.	Termiz shahar "Termiz shahar dehqon oziq-ovqat bozori"	min	48000	58000	3000	1500	2000	7500	7000	10500	6000
		max	50000	59000	4000	2000	3000	8500	15000	11500	6500
14.	Termiz shahar "Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori"	min	48000	57000	2500	1000	2000	7500	6000	10500	6000
		max	49000	58000	4000	2000	2500	8000	15000	11000	6500
15.	Guliston shahar "Guliston dehqon bozori"	min	55000	64000	2500	900	2000	5000	6000	10000	6000
		max	58000	67000	3500	1200	2500	8000	16000	12000	6000
16.	Chirchiq shahar "Chirchiq dehqon bozori"	min	55000	60000	2500	1500	1500	8000	6500	10000	6200
		max	65000	65000	4000	2000	2500	9000	14500	14000	6500
17.	Yangiyo'l shahar "Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori"	min	45000	58000	2500	1200	2500	6300	7000	11000	6000
		max	58000	60000	4500	1700	3500	9000	17000	14000	6000
18.	Farg'ona shahar "Farg'ona shahar markaziy dehqon bozori"	min	45000	50000	2500	1200	1500	7000	7000	9800	6000
		max	54000	56000	4000	2500	2000	9000	14000	12500	6500
19.	Urganch shahar "Urganch markaziy dehqon bozori"	min	45000	60000	3000	1500	2000	8000	7000	11000	6000
		max	60000	65000	4500	2000	3000	9000	15000	13000	6000
20.	Toshkent shahar "Eski jo'va dehqon bozori"	min	45000	53000	3500	1200	2500	7000	5600	8800	5800
		max	60000	75000	5000	2500	4500	11000	17000	14000	7000
21.	Toshkent shahar "Oloy dehqon bozori"	min	55000	60000	3500	1500	2000	7500	6000	10500	6000
		max	65000	85000	6000	3500	4500	12000	16000	14500	7000
22.	Toshkent shahar "Farhod dehqon bozori"***	min	42500	45000	2500	1500	2500	7000	7600	10000	5800
		max	65000	72000	5000	2800	4000	12000	16000	13500	6500
23.	Toshkent shahar "Qo'yliq dehqon bozori"***	min	42500	45000	2500	1500	2000	7000	5500	9000	5800
		max	60000	72000	4000	2500	3500	11000	16000	14000	6500
24.	Toshkent shahar "Mirobod dehqon bozori"***	min	45000	55000	3500	1500	2000	8000	7000	8800	5800
		max	65000	75000	5000	3000	6000	12000	18000	15000	7000

*) Alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlari kuzatuvi, statistika organlari tomonidan viloyatlarning hududiy markazlari, Nukus hamda Toshkent shaharlarida **ALOHIDA TANLAB OLINGAN** markaziy **DEHQON BOZORLARI** kesimida amalga oshiriladi.

Hududlarning markaziy dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlarni ro'yxatga olishda, dehqon bozori bo'lmagan savdo obyektlaridagi narxlar kuzatuvga olinmaydi (minimarketlar, supermarketlar, do'konlar va hokazo).

Kuzatuvning **MAQSADI**, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi **NARXLAR DIAPAZONINI ANIQLASHDAN IBORAT**.

Shu asnoda ro'yxatga olingan narx ma'lumotlaridan o'rtacha iste'mol narxlari darajasini aks ettirish yoki uni baholash, shuningdek, narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Muayyan hududning markaziy dehqon bozorida, aniq turdagi tovar bo'yicha ro'yxatga olingan **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** narxlar, respublika bo'yicha shu hududda aynan ushbu mahsulotning o'rtacha narxlari darajasini **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** deb hisoblash uchun **ASOS BO'LMAYDI**.

Dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlar darajasiga, assortiment yoki hududiy siljishlar, shuningdek, kuzatuv o'tkazish vaqtida bozorlardagi mavjud sharoitlar ta'sir etishi mumkin.

Narxlar kuzatuv amalga oshirilayotgan vaqtda qayd etiladi va ma'lumotlarni to'plash vaqti, sanasi hamda joyi o'zgarishiga qarab ham, narxlarning tebranish holatini ko'rish mumkin.

**) Tozalik kunlari jadvaliga muvofiq, ayrim bozorlarda sanitar-epidemiologik tadbirlar amalga oshirilayotganligi sababli, Toshkent shahrining "Mirobod dehqon bozori", "Qo'yliq dehqon bozori" va "Farhod dehqon bozori"da kuzatuvlar bir kun oldin o'tkazilgan.